



## OMONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11186801>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 9-may 2024 yil  
Ma'qullandi: 10-may 2024 yil  
Nashr qilindi: 13-may 2024 yil

### KEY WORDS

omonim, ko'p ma'noli so'zlar,  
leksikologiya, o'z ma'no ko'chma ma'no;

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada leksikologiyaning bir qismi bo'lgan omonimlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Omonimlar bilan ko'p ma'noli so'zlarni bir-biridan ajratishimiz kerak har doim. Ko'p ma'noli so'zlar so'zning o'z va ko'chma ma'nolari asosida vujudga keladi. Omonimlar esa shakli bir xil ma'nolari esa boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar hisoblanadi.*

Shakli bir xil ma'nolari har xil bo'lgan so'zlarga omonimlar deyiladi. Omonimlarning bir yoki bir necha so'z turkum doirasida uchraydi. Agar shakldoshlik bir so'z turkumi doirasida uchrasa unga qo'shimchalar qo'shilganda ham shakldoshlik xususiyatini saqlab qoladi agar ular boshqa-boshqa so'z turkumi doirasida bo'lganda qo'shimchalar qo'shilganda shakldoshlik xususiyatini yo'qotadi. Ba'zi so'zlar esa ham shakldoshlik ham omonimlik xususiyatiga ham ega bo'ladi.

Omonim affikslar ham O'zbek tilida ko'p masalan: **-ma** asosan fe'lning bo'lishsiz shaklini hosil qiladigan qo'shimcha lekin uni so'z yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qilish o'rinlarini ham ko'rishimiz mumkin **-ma** ot yasovchi *tortma*, sifat ham yasaydi *qaynatma* bu affikslarning omonimligi. Meni uyimga boshqa *kelma*. Nonushtaga asrab qo'ygan bir burdagina qotgan nonni tumbochka *tortmasidan* olib yedi.

So'zlarning omonimligiga esa ot so'zini misol qilib olishimiz mumkin masalan ot hayvon, ot ism, ot fe'l bo'lib keladi. *Otdan* tushsa ham egardan tushmaydi. Boshlagan ishimni oxirigacha olib bormasam *otimni* boshqa qo'yaman. *Koptokni* tez-tez *ot*.

Iboralar ham omonimlik xususiyati ega: boshga ko'tarmoq- e'zozlamoq, boshga ko'tarmoq-shovqin solmoq. Laziz onasining shunchalik yaxshi ko'radi har doim *boshida ko'tarib* yuradi. O'qituvchi darsga kech qolib kelganiga o'quvchilar sinfni *boshiga ko'tardi*. Bularning ham yozilishi bir xil bo'ldi lekin ma'nolarida umuman bir-biriga o'xshashlik hodisalari kuzatilmaydi. Iboralar bilan so'zlar ham omonimlik hosil qilishi mumkin: Aziz dunyodan erta *ko'z yumdi*. Aziza uxlash uchun *ko'zini yumdi*.

Badiiy adabiyotda ham omonimlar biz uchun juda ham zarur. Shu omonimlar orqali biz *tajnis* she'riy san'atini hosil qilishimiz mumkin. Tuyuqlar omonim so'zlar asosida yaratiladi. Tuyuqning asosiy shartlaridan biri undan, albatta, omonim so'zlar bo'lishi kerak.

Charxi kajraftor elidin *yozamen*,

Chiqmadim hijron qishidin *yoza men*,

Bir meni yorliq bila yod etmas ul,

Har necha ul shahg'a qulluq *yozamen*

Omonimiya va polisemiya hodisalari o'rtasida ma'lum o'xshashlik va tafovutlar bor. O'xshashligi: omonimiyada ham, polisemiyada ham ifoda plani (shakli) bir xil bo'ladi, har ikki holatda birdan ortiq ma'no ifodalanadi. Farqlari: omonimiyada shakli bir xil bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'z (leksema) nazarda tutiladi; polisemiyada esa bir necha ma'nosi bor bo'lgan bitta leksema haqida gap boradi. Omonim leksemalarning ma'nolari har xil bo'ladi, bu ma'nolar o'rtasida bog'lanish yo'q. Ko'p ma'noli so'zning ma'nolari ham har xildir, ammo ular o'rtasida bog'lanish bor: ular ma'no ko'chishi asosida yuzaga kelgan bo'ladi. Qiyos qiling:

bo'z (1) – “gazlamaning bir turi”.

bo'z (2) – “o'simlikning bir turi”.<sup>1</sup>

Omonimlik xususiyati dunyodagi hamma tilga xos bo'lgan belgilarning biridir. Hozirgi zamon tilshunosligi omonim so'zlarning yozilishi va talaffuz qilinishi jihatdan ularni bir qancha turlarga ajratadi. Yozilishi va talaffuzi bir-biriga mos keladigan so'zlar mutlaq omonimlar deyiladi. Masalan: tor - musiqa asbobi ma'nosida va keng so'zining antonimi ma'nosida; rus tilida shashka so'zi qilich va o'ynaladigan predmet ma'nosida: ingliz tilida still sokin va hozirgacha ma'nolarida, acht so'zi nemis tilida sakkiz va diqqat ma'nolarida keladi va hokazo. Yozilishi har xil, lekin talaffuzi bir xil omonim so'zlar omofon deb yuritiladi. Masalan: o'zbek tilidagi to'n va ton (ovoz), Ba'zi so'zlar bir xil yozilib, har xil o'qiladi. Tilshunoslikda bunday so'zlar omograflar deb yuritiladi. Masalan: o'zbek tilidagi tok so'zi ikki xil talaffuz qilinadi; uzum ma'nosida va elektr quvvati yoki rus tilidagi zamok so'zi ikki xil o'qiladi: qasr ma'nosida qo'llanganda urg'u birinchi bo'g'inga, qulf ma'nosida qo'llanganda esa ikkinchi bo'g'inga tushadi.<sup>2</sup>

Omonim omoleksemalar asosan bir turkum leksemalari bo'ladi. Bunday omonimiya ko'pincha ot, fe'l turkumi leksemalarida uchraydi: oy- I (planeta nomi) — oy- 7 (“yilning o'n ikkidandan bir qismi”), chop - I (“yugur”) -chop- II (“yer sathini qirqib ag'dar”) kabi. Omonim omoleksemalar sifat turkumi leksemalarida ham uchraydi: och- I (“ochqagan”) — och- II (“me'yorga yetmagan”— rang haqida: och ko'k) kabi. Har xil turkum leksemalari o'zaro omonim omoleksema bo'lishi uchun ular grammatik shakllanishga ega bo'lmasligi kerak.

<sup>1</sup> Jamolxonov H Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005

<sup>2</sup> Irisqulov M T Tilshunoslikka kirish

Masalan, albatta I (Albatta boraman-ravish)albatta II (Boraman, albatta-modal birlik). Bunday munosabat balki I modal birligi bilan balki II bog'lovchisi orasida ham voqe bo'lgan.<sup>3</sup>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jamolxonov H Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005
2. Irisqulov M T Tilshunoslikka kirish
3. Rahmatullayev Sh O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati Toshkent-1984
4. Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili toshkent-2006



---

<sup>3</sup> Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili toshkent-2006